DOI 10.5281/zenodo.8402510

Sulaymanov Dilmurod Maxammatjanovich

IMOM A'ZAM "AL-FIQHU-L-ABSAT" ASARIDA KALOM ILMI MASALALARINI YORITISHDAGI DALILLASH USLUBLARI

Abu Hanifaning asardagi masalalarni yoritishda dalillash uslublari tahlil qilinganda, aqliy va naqliy dalilardan ko'pchilik tushunadigan sodda uslubda sunniylik e'tiqodiy qarashlari bayon qilinib, bid'at qarashlarga raddiyalar berilganligi ma'lum bo'ladi. Imom A'zam "al-Fiqhu-l-absat" asarida Qur'on karim oyatlari, hadisi shariflar, ijmo, sahobalar so'zi kabi naqliy dalillardan ko'plab o'rinlarda foydalangan. Asarni tahlil qilish davomida naqliy dalillarning mahorat bilan keltirilishi, ularni bir-biriga o'z o'rnida bog'lay olish malakasi borasida Imom A'zamning yuksak darajalari namoyon bo'ladi.

Dalil so'zi arab tilida "ko'rsatuvchi", "boshlovchi" ma'nolarini anglatib, istilohda his a'zolari bilan hamda o'z-o'zidan bilinmaydigan narsalarning ma'rifatiga olib boruvchi narsadir[1]. Sayyid Sharif Jurjoniyning ta'rifiga ko'ra, dalil shunday narsaki, uni bilish boshqa bir narsani bilishni taqozo qiladi[2]. Dalilar aqliy va naqliy dalillarga bo'linadi. Dalillarning ushbu ikki turi ham o'z navbatida qat'iy va zonniy dalalarga bo'linadi. Qat'iy dalillar aniq yaqiniy bilimni ifoda qilib, unda boshqacha ehtimolga o'rin qolmaydi. Zonniy dalil esa unday emas, undan boshqa ehtimollar to'liq ketmaydi[3].

Naqliy dalillar o'z navbatida subuti[4] va dalolatining[5] qat'iy yoki zonniyligiga ko'ra to'rt turga bo'linadi:

1. Subuti va dalolati qat'iy dalil.
2. Subuti qat'iy va dalolati zonniy dalil
3. Subuti zonniy va dalolati qat'iy dalil
4. Subuti va dalolati zonniy dalil.

Qur'oni karim subut jihatidan qat'iy hisoblanadi, zero uning barcha oyatlari mutavotir tarzda naql qilingan. Hadislarning mutavotir tarzda naql qilinganlari ham subiti qat'iy dalil bo'lsa, qolgan turdagi barcha hadislarning subuti esa zonniy bo'ladi. Dalolat jihatidan esa, Qur'ondagi muhkam oyatlar hamda aniq bir ma'noni ifodalaydigan hadislar dalolat jihatidan qat'iy hisoblanadi[6].

Abu Hanifa "al-Fiqhu-l-absat" asarida aqoid masalalarini dalillashda ko'proq naqliy dalillardan foydalangan deb aytish mumkin. Mazkur naqliy dalillar quyidagilardan iborat:

1. Qur'oni karim oyatlari
2. Hadisi sharif
3. Ijmo
4. Sahobalarning so'zi

"Al-Fiqhu-l-absat" asaridagi birinchi manba, shubhasiz, Qur'oni karim hisoblanadi. Imom A'zam Qur'on oyatlaridan ahli sunna val jamoa e'tiqodiy masalalarini asoslash va bid'at qarashlarga raddiya berishda mohirona va o'z o'rnida foydalanilganiga guvoh bo'lish mumkin. Qur'on oyatlarining o'ziga xosligi shundaki, unda dalil keltirish va munozaraning barcha uslublari mujassamligidir. Ammo bu uslublarni anglash va ulardan unumli

[1] Qarang: Abu Bakr Boqiloniy. Kitabu-t-tamhid. – Livan: Muassasat as-saqofati-l-islamiya, 1987. – B. 13.
[2] Qarang: Ali ibn Muhammad Sharif Jurjoniy. At-Ta'rifot. – Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiya, 1983. – B. 104.
[3] Abus Sano Mahmud Lomishiy. At-Tamhid li-qovaidi-t-tavhid. – Istanbul: al-Maktabatu-l-hashimaya, 2022. – B. 37.
[4] Xabarning naql qilinishi jihatidan.
[5] Xabarning bir ma'noni ifoda qilishi jihatidan
[6] Abus Sano Lomishiy. At-Tamhid li-qovaidi-t-tavhid. – B. 39.

https://wordlyknowledge.uz

foydalangan holda oyatlardan o‘z o‘rnida dalillash uchun chuqur bilim va malaka, qolaversa, tavfiq kerak bo‘ladi.

"Al-Fiqhu-l-absat" asarida Abu Hanifaning bid’at qarashlarga Qur’on oyatlarini dalillashdagi o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Abu Hanifa nazdida Qur’oni oyatlari aqoid masalalarini dalillash va bid’at qarashlarga raddiya berishdagi birinchi manbadir.

2. Aqoid masalalarini Qur’on bilan dalillash ijtihodiy ish hisoblanadi.

3. Qur’on oyatlarining bir-biriga qarama-qarshi kelmasligi.

Abu Hanifaga nisbatan bildirilgan ta’nalardan biri olimning hadis ilmida yetarli bilimga ega emasligi haqidagi iddaolardir. Bu iddaolar asossiz ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topmoqda. "Al-Fiqhu-l-absat" risolasida olim o‘n beshta hadis keltirilib, turli o‘rinlarda ulardan dalil sifatida foydalanilgan. Ushbu hadislarning ko‘pchiligida rivoyat zanjirlari Abu Hanifa to‘g‘ridan to‘g‘ri yetib boradi. Ba’zi o‘rinlarda esa hadislarni ma’no bilan ham naql qilgan.

Ijmo musulmon ummati bir ovozdan tasdiq qilgan asosiy manbalarning uchinchisi hisoblanadi. Bir davrdagi musulmonlarning barcha mujtahidlari bir hukmga jamlanar ekan, demak ularning Qur’on va hadisdan bir asosga suyangan hisoblanadi. Ijmoning turli darajalari bor. Birinchi darajasi − sahobaning ijmosidir.Shuningdek, asarning bir qancha o‘rinlarida aqidaviy masalalar sahobalar so‘zlari asosida dalillanganiga guvoh bo‘linadi.

"al-Fiqhu-l-absat" asarida naqliy dalillar bilan dalillash uslublarini keltirib o‘tildi. Abu Hanifa ushbu risolada aqoid masalalarini bayon qilish, ayniqsa, bu borada bid’at qarashlarga raddiya berish jarayonida aqliy dalillardan ham foydalangan.

Avvalo, naqliy dalillarni o‘z o‘rniga qo‘yish, ularni taqqoslash va ulardan hukm olish uchun aqlni ishga solmasdan boshqa iloj yo‘q. Qolaversa, risolada jadal ya’ni bahs va munozara ilmida mashhur bo‘lgan “sabr va taqsim” (Barcha ehtimollarni ko‘rib chiqib raddiya berish), “al-qavlu bil-muvjab” (Qarshi tomonning so‘zini o‘ziga qarshi dalil qilish) va “munoqaza” (Bir ishni amri mahol ekanligini unga boshqa bir amri mahol ishni bog‘lash bilan isbotlash) kabi aqliy dalillash uslublaridan ham keng foydalanilgan[7].

Abu Hanifa tomonidan asarda Qur’on oyatlari, hadis, ijmo, sahobalarning so‘zlari kabi naqliy dalillar bilan birga aqliy dalillash uslublari ham qo'llanilishi olimning kalom ilmini butunlay tark etgani holda keyingi moturidiya maktabi olimlarini bu bilan shug‘ullanganini tanqid ostiga oluvchilarning da’volari asossiz ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Asarda qo‘llanilgan aqliy dalillash uslublari keyingi mutakallim olimlar kabi ko‘p ishlatilmagan, balki ko‘pchilik tushunadigan tarzda keltirilgan. Zero, ko‘pchilik tushunadigan ochiq-oydin dalillarni keltira olish haqni ochiqlash va xalqni qanoatlantirishning eng afzal yo‘li hisoblanadi. Aslida, bunday dalillar kifoya qilmagandan yoki bo‘lmaganda faqat ozchilik anglaydigan chigal dalillarga o‘tiladi.

Buning sababi esa Abu Hanifa davrida bid’at qarashlar hali o‘ta chigallashmagan edi. Shuning uchun Imom A’zam musulmonlar e’tiqodini himoya qilish va bid’at toifalarga raddiya berishda kifoya qilgulik darajada aqliy va naqliy raddiyalar berish bilan kifoyalangan, degan xulosa qilish mumkin. Keyingi davrlarda esa, davr taqozosi o‘laroq Abu Mansur Moturidiy va Imom Ash’ariy kabi ahli sunna val jamoa mazhabi aqidasini himoyachilari va yetuk allomalari bu uslublarni yanada rivojlantirgan va kengroq foydalangan.

Bundan tashqari, ahli sunna e’tiqodini bayon qilish va bid’at qarashlarga raddiya berish kimlarga yo‘naltirilganligini inobatga olish ham juda muhim. "Al-Fiqhu-l-absat" asari omma musulmonlariga ahli sunna e’tiqodini bayon qilish va ularni bid’at qarashlar fitnasidan himoya qilish uchun mo‘ljallangan. Ammo keyingi davrlarda yozilgan kalom ilmiga oid

[7] Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulumi-l-Qur’on. – Misr: Al-Hay’atu-l-misriya, 1974. – J. 4. – B. 60.

https://wordlyknowledge.uz

kitoblar esa naqliy dalilarni inkor qiladigan yoxud e’tirof qilsa-da aqliy dalillarga mukkasidan ketgan toifalarga qarshi turishga mo‘ljallanganligini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

WORDLY
KNOWLEDGE